



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 370 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
Burtshova Aliya Burxonovna	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
Nazarova Vazira Bahron qizi	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
Shodmonova Munisa Furkatovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	



UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO'LGAN O'QUVCHILARNING IJTIMOY MOSLASHUVCHANLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan (surunkali va og'ir kasalliklarga chalingan) o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Surunkali xastaliklar va gospitalizatsiya sharoiti bolalarning ruhiy-emotsional holatiga, o'z-o'zini baholashiga hamda tengdoshlari va jamiyat bilan muloqot qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida psixosotsial reabilitatsiya va inklyuziv gospital pedagogika usullarining o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar uzoq vaqt statsionar sharoitda davolanayotgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gospital pedagogika, ijtimoiy moslashuv, psixosotsial reabilitatsiya, uzoq muddat davolanuvchi bolalar, pedagogik shart-sharoitlar, emotsional holat.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological conditions for developing social adaptation skills among students who require long-term medical treatment (those suffering from chronic and severe diseases). Chronic illnesses and hospitalization negatively affect children's psycho-emotional well-being, self-esteem, and opportunities for communication with peers and society. The study analyzes the impact of psychosocial rehabilitation and inclusive hospital pedagogy methods on students' social adaptation, emotional stability, and personal development. The findings demonstrate the need for a specially adapted pedagogical support system for children undergoing long-term inpatient treatment.

Key words: hospital pedagogy, social adaptation, psychosocial rehabilitation, children undergoing long-term treatment, pedagogical conditions, emotional well-being.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические и психологические условия развития навыков социальной адаптации у учащихся, нуждающихся в длительном лечении (страдающих хроническими и тяжёлыми заболеваниями). Хронические заболевания и условия госпитализации оказывают негативное влияние на психо-эмоциональное состояние детей, их самооценку, а также возможности общения со сверстниками и обществом. В ходе исследования проанализировано влияние методов психосоциальной реабилитации и инклюзивной гопитальной педагогики на социальную адаптацию, эмоциональную устойчивость и личностное развитие учащихся. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости создания специально адаптированной системы педагогической поддержки для детей, находящихся на длительном стационарном лечении.

Ключевые слова: гопитальная педагогика, социальная адаптация, психосоциальная реабилитация, дети, находящиеся на длительном лечении, педагогические условия, эмоциональное состояние.

KIRISH

Uzoq muddatli va og'ir kasalliklar (onkologik, somatik va boshqa surunkali xastaliklar) sababli statsionar sharoitda davolanayotgan hamda uyda ta'lim olayotgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Uzoq muddatli davolanish jarayoni bolaning nafaqat jismoniy salomatligiga, balki uning emotsional va kognitiv sohalariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muloqotning cheklanishi, tengdoshlar jamoasidan uzilib qolish, doimiy tibbiy muolajalar va xavotir darajasining yuqoriligi bolalarda ijtimoiy dezadaptatsiya hamda o'z-o'zini baholashning pasayishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, og'ir kasalliklarga chalingan bolalar va o'smirlarda xulq-atvor hamda emotsional buzilishlar, xavotir, tushkunlik va ijtimoiy muloqotdan qochish holatlari ko'p kuza-tiladi. Masalan, E.V. Bulycheva ^[2] va K.A. Sharina ^[3] tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, psixofizik va emotsional zo'riqishlar shaxsning bazaviy ishonch tuyg'ularini hamda ijtimoiy mo'ljallarini izdan chiqaradi.

A.A. Pichikov va hammualliflar ^[1] ta'kidlaganidek, surunkali patologiyalar va uzoq muddatli cheklovlar miyaning kognitiv hamda emotsional tarmoqlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikka, shuningdek, o'z-o'zini anglash hamda nazorat qilish mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

S.V. Sharikov ^[4] gospital ta'lim muhitini yaratishda bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligini uqtirsa, D.A. Yeryomina ^[5] va M.V. Zotova ^[6] statsionar sharoitdagi ta'lim o'quvchilarning psixosotsial reabilitatsiyasida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib bergan.

D.V. Ivanov ^[7] esa inklyuziv va maxsus pedagogika doirasida bunday o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha samarali yondashuvlarni ilgari suradi. Shu sababli, uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilar uchun faqatgina ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, ularning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zaruriyati tug'iladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – gospital va uy sharoitida ta'lim olayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi pedagogik omillar hamda usullarni aniqlash va ularning samaradorligini asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda uzoq muddatli statsionar sharoitda davolanayotgan hamda uyda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv xususiyatlari atroflicha o'rganildi ^[4]. Izlanish davomida gospital pedagogikasi hamda psixologiyaning o'zaro integratsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Metodologik bazani shakllantirishda pedagogik kuzatuv hamda zamonaviy psixodiagnostik testlardan unumli va keng foydalanildi. Ushbu diagnostik vositalar yordamida o'quvchilarning xavotir darajasi, emotsional holati hamda ijtimoiy moslashuvi atroflicha baholandi ^[1]. Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'quvchilarning salomatlik ko'rsatkichlari hamda tibbiy muolajalar tartibi doimiy ravishda inobatga olindi ^[4]. Kompleks yondashuv bolalarning ruhiy va kognitiv imkoniyatlarini xolis hamda aniq baholash imkonini berdi. Barcha metodologik vositalar gospital sharoitiga to'liq moslashtirilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Tadqiqot doirasida "Mehrli maktab" o'quvchilarining emotsional barqarorligi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratildi ^[4]. Amaliyotchi pedagog sifatida har bir mashg'ulotni bolalarning jismoniy holati va ruhiy quvvatiga qarab moslashtirishga harakat qildik. Dars jara-yonlarida art-terapiya unsurlari, masalan, rasm chizish, loy bilan ishlash va musiqa terapiyasi keng qo'llanildi. Shuningdek, bolalarni erkin muloqotga chorlovchi hamda ulardagi emotsional zo'riqishni kamaytiruvchi o'yin texnologiyalaridan unumli foydalanildi. Ushbu metodlar bolalarda o'z ichki kechinmalarini namoyon qilish va xavotirni yengish ko'nikmasini shakllantirdi ^[3]. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, to'g'ri tashkil etilgan san'at va o'yin mashg'ulotlari bolaning ruhiy tetikligini tezda tiklaydi. Natijada o'quvchilarda darslarga va tengdoshlari bilan muloqot qilishga nisbatan samimiy qiziqish paydo bo'ldi. O'quvchilarning ijtimoiy izolyatsiyasini bartaraf etish maqsadida masofaviy va raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Raqamli ta'lim plat-formalari va videoaloqa vositalari orqali bolalarning tengdoshlari hamda o'qituvchilari bilan doimiy muloqotda bo'lishi ta'minlandi ^[4].

Virtual muloqot muhiti o'quvchiga o'zini yolg'iz his qilmaslik va maktab jamoasining faol a'zosi sifatida ko'rish imkonini berdi. Shu bilan birga, statsionar sharoitda kichik guruhlarda birgalikda ijodiy va bilishga oid vazifalarni bajarish jarayonlari yo'lga qo'yildi. Birgalikdagi loyihalar davomida bolalar o'zaro fikr almashish, bir-birini tinglash va hamkorlikda qaror qabul qilishni o'rgandilar ^[7]. Bizning kuzatuvimizcha, ushbu raqamli va jamoaviy muloqot shakli bolalarning ijtimoiy faolligini bir necha barobar oshirdi. Bu esa ularning kelajakda an'anaviy maktab va ijtimoiy muhitga qaytishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Kompleks psixopedagogik qo'llab-quvvatlash orqali bolalarda o'z-o'zini boshqarish va ruhiy zo'riqishni yengib o'tish usullari bosqichma-bosqich shakllantirildi ^[2].

Amaliy tajriba davomida olingan barcha natijalar va o'quvchilar ruhiyatidagi o'zgarishlar maxsus kuzatuv kundaliklarida hamda testlarda doimiy qayd etib borildi. Har bir bolaning rivojlanish dinamikasi individual tartibda tahlil qilinib, mashg'ulotlar rejasiga tegishli tuzatishlar kiritildi. Tajriba-sinov jarayonlari to'liq ravishda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga va muloqot to'siqlarini bartaraf etishga yo'naltirildi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, doimiy psixopedagogik e'tibor bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni va umid tuyg'usini qayta tiklaydi. Natijada gospital sharoitida ham bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari muvaffaqiyatli rivojlantirildi ^[6]. Uzoq muddatli davolanish jarayonida ushbu usullarning qo'llanilishi ta'lim va reabilitatsiya samaradorligini birdek ta'minladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida uzoq muddatli davolanish va izolyatsiya bolalarning ruhiy-emotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Izlanish boshida o'quvchilarda ijtimoiy dezadaptatsiya, muloqotdan qochish va tortinish holatlari yaqqol ko'zga tashlandi. Kasallik va muolajalar sababli bolalarda yuqori xavotir hamda o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kuzatildi. Ular tengdoshlari bilan hamkorlik qilishda va o'z fikrini erkin bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Biroq maxsus tajriba-sinov mashg'ulotlari joriy etilgach, o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional holatida tub burilishlar yuz berdi. Bolalarda muloqotga bo'lgan qiziqish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni sezilarli darajada tezlashdi. Natijalar pedagogik qo'llab-quvvatlashning amaliy samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi. Tajriba-sinov natijasida o'quvchilarda murakkab sharoitlarda ham ijtimoiy muloqotni saqlab qolish va moslashish ko'nikmalari shakllandi. Bolalarda tushkunlik hamda xavotir darajasi pasayib, emotsional barqarorlik va ruhiy tetiklik qaror topdi. Ular tengdoshlari bilan jamoaviy loyihalarda faol ijtimoiy kirishuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini namoyon eta boshladilar.

Shuningdek, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch tuyg'usi sezilarli darajada ortdi. Masofaviy va raqamli vositalar orqali jamiyatdan uzilib qolmaslik hamda muloqotni davom ettirish ko'nikmasi mustahkamlandi. Bolalarda o'z emotsional holatini va stressni mustaqil boshqarish ko'nikmalari muvaffaqiyatli rivojlandi. Yakuniy ko'rsatkichlar yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini to'liq ta'minlaganini tasdiqladi.

Olingan amaliy natijalar va kuzatuvlar uzoq muddat davolanayotgan bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining muvaffaqiyati to'g'ri va maqsadli tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bog'liqligini yaqqol isbotlaydi. Gospital sharoitida tahsil olayotgan o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi faqatgina davlat ta'lim standartlari doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ruhiy-emotsional tiklanishi, xavotir darajasini kamaytirish hamda psixosotsial reabilitatsiyasini ham qamrab olishi shart. Davolanish jarayonida bolaning kognitiv faoliyatini qo'llab-quvvatlash va unda atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish uning kasallikni yengishga bo'lgan irodasini va hayotiy motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Chuqur adabiyotlar tahlili va tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalari uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda muloqot faolligini oshirish uchun ta'lim jarayoniga quyidagi muhim pedagogik shart-sharoitlar va prinsiplarni tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko'rsatadi: Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning o'quv jarayonida muvaffaqiyatli qatnashishini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, ularning individual jismoniy va ruhiy holatiga moslashuvchi moslashuvchan ta'lim muhitini shakllantirish zarur. Bunda bolaning kundalik tibbiy muolajalari, muolajalardan keyingi jismoniy holati hamda toliqish darajasini inobatga olgan holda maxsus va moslashtirilgan dars jadvali hamda individual ta'lim trayektoriyasi ishlab chiqiladi. An'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, o'quv yuklamalari bolaning imkoniyatlariga qarab tabaqlashtiriladi va dars mashg'ulotlarining vaqti o'zgartirilishi mumkin bo'lgan egiluvchan shaklga keltiriladi ^[4]. Bu yondashuv o'quvchining davolanish jarayoniga xalaqit bermagan holda uzluksiz ta'lim olishini va doimiy ravishda bilim olish motivatsiyasini yuqori darajada saqlab turishini ta'minlaydi.

Statsionar sharoitda va uyda uzoq muddat izolyatsiyada bo'lgan bolalarning jamiyatdan hamda o'zi ta'lim oladigan maktab jamoasidan uzilib qolmasligi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'lim platformalarining imkoniyatlaridan unumli foydalaniladi. Zamonaviy videoaloqa va interaktiv ta'lim tizimlari orqali o'quvchining o'z sinfdoshlari, tengdoshlari hamda maktab o'qituvchilari bilan virtual muloqotda bo'lishi yo'lga qo'yiladi. Raqamli muhit nafaqat o'quv materiallarini o'zlashtirish, balki do'stona ijtimoiy aloqalarni davom ettirish va o'quvchida doimiy qo'llab-quvvatlanish tuyg'usini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi ^[5]. Natijada bolaning ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlik natijasida yuzaga keladigan tushkunlik hamda xavotir holatlari bartaraf etiladi. Kasallik va doimiy tibbiy muolajalar bilan bog'liq bo'lgan psixofizik hamda emotsional zo'riqishlarni kamaytirish uchun gospital pedagogikasi va psixologiyaning samarali usullari amaliyotga tatbiq etiladi.

Xususan, art-terapiya (rasm chizish, loy bilan ishlash, musiqa terapiyasi va ijodiy ishlar), o'yin texnologiyalari hamda relaksatsion mashqlar orqali bolaning salbiy emotsional holatlari va stress darajasi kamaytiriladi. Ushbu metodlar bolaga o'zining ichki kechinmalarini, qo'rquv va xavotirlarini erkin namoyon qilish hamda ularni yengib o'tish imkonini beradi ^[2]. Psixopedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhit bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini qayta tiklaydi hamda unda emotsional barqarorlik va ruhiy tetiklikni shakllantiradi. Davolanish sharoitida bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy muloqotchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kichik guruhlarda jamoaviy hamda ijodiy loyihalarni bajarish metodikasi qo'llaniladi. Turli yosh va sinfdagi bolalarning umumiy qiziqishlariga asoslangan sinflararo loyiha faoliyati ularni bir maqsadga birlashtiradi va o'zaro fikr almashish, qaror qabul qilish hamda do'stona munosabatlarni o'rnatishga undaydi. Birgalikda amalga oshiriladigan bilish va ijodga yo'naltirilgan topshiriqlar bolalarga jamiyat va jamoaning faol a'zosi ekanliklarini his qilish imkonini beradi ^[7]. Bu esa o'quvchilarda jamoada ishlash, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi hayotiy zarur ko'nikmalarni muvaffaqiyatli rivojlantiradi.

**XULOSA**

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy hospital pedagogikasining eng ustuvor hamda hal qiluvchi vazifalaridan biridir. An'anaviy ta'lim usullarini psixosotsial reabilitatsiya, art-terapiya hamda raqamli muloqot texnologiyalari bilan oqilona uyg'unlashtirish uzoq vaqt izolyatsiyada bo'lgan bolalarda xavotir va tushkunlik darajasini sezilarli ravishda kamaytiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiyalashgan darslar va kichik jamoaviy loyihalar o'quvchilarning nafaqat bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularda o'ziga bo'lgan ishonchni qayta tiklab, tengdoshlari va pedagoglar bilan samimiy muloqot o'rnatishiga keng imkoniyat yaratadi. Natijada hospital sharoitida ham bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi hamda ijtimoiy-psixologik tiklanishi ta'minlanadi.

Olib borilgan tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalari taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlar kompleksining yuqori samaradorligini to'liq tasdiqlaydi. "Mehrlı maktab" tajribasi ko'rsatganidek, hospital ta'lim jarayonida har bir bolaga individual va mo'tadil yondashish ularning kelajakda an'anaviy maktab hamda ijtimoiy muhitga qaytishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Shu sababli, hospital pedagogikasi amaliyotida loyihaviy hamda integratsiyalashgan ta'lim usullarini yanada kengroq o'zlashtirish, ushbu yo'nalishdagi metodik ta'minotni muntazam takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot xulosalari uzoq muddatli davolanishda bo'lgan bolalarga ta'lim va psixologik madad berish tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пичиков А.А., Тихомиров Д.И., Саломатина Т.А., Гребенщикова Р.В., Лукина Л.В., Ахмерова Л.Р., Фомин Ф.Ю., Громыко Д.И., Попов Ю.В. Взаимосвязь клинико-психологических характеристик с изменениями функциональной связанности в сетях состояния покоя у девушек-подростков с нервной анорексией // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2023. – Т. 23, № 3. – С. 4–18.
2. Булычева Е.В. Нейрофизиологические факторы риска формирования стресса у детей и подростков школьного возраста // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2023. – Т. 23, № 3. – С. 25–27.
3. Шарина К.А. Базисные убеждения у учащихся с ненормативным индексом массы тела // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2023. – Т. 23, № 3. – С. 19–24.
4. Шариков С.В. Создание образовательной среды для детей, находящихся на длительном лечении в медицинских организациях // Педагогика. – 2019. – № 10. – С. 45–54.
5. Еремина Д.А. Психосоциальная адаптация детей с хроническими соматическими заболеваниями в условиях стационара // Вестник Санкт-Петербургского университета. Психология. – 2021. – Т. 11, № 2. – С. 134–145.
6. Зотова М.В. Особенности госпитальной педагогики: проблемы и перспективы развития // Специальное образование. – 2022. – № 4. – С. 88–97.
7. Иванов Д.В. Социальная адаптация детей с ограниченными возможностями здоровья в условиях инклюзивного образования // Социальная педагогика. – 2020. – № 3. – С. 61–70.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.